

Xodjaev N.I.

**SAMARQAND VELOYATIDA AHOLIGA PULLIK TIBBIY VA
SERV1S XIZMATLARI KO'RSATISHNING HOLATI VA TAHLLILI**

Samarqand davlat tibbiyot instituti

Tahlil maqsadi - Samarqand viloyati tibbiyot muassasalarida pullik va servis xizmatini tashkil qilishning ayrim son va sifat ko'rsatkichlarini o'rganish.

Materiallari va usullari - Samarqand viloyat, shahar va tumanlar davolash -profilaktika muassasalari, viloyat hokimligi sog'lijni saqlash boshqarmasi xususiylashtirish va pullik xizmatni tashkil etish bo'lumi materiallari olinib statistik usullarda tahlil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgan kundan boshlab tibbiyot sohasida islohotlar boshlandi desak xato qilmaymiz. Istiqlol yilarida Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida Mamlakatimizda sog'lijni saqlash tizimini isloh qilish va uni rivojlanterish uchun mustahkam huquqiy asoslar yaratildi.

1992 yil 8 dekabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bosh qomusimizning 40-moddasida "har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega" ligi bayon etilgan. Fuqarolaming mazkur konstituttsiyaviy huquqlarini amalda ta'miniash uchun O'zbekiston Oliy Majlisи tomonidan 1996 yil 29 avgustda "Fuqarolar sog'lijni saqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Mamlakatimiz Mustaqillikka erishgandan so'ng sog'lijni saqlash sohasining sobiq Ittifoq tuzumi davrida shakkantirilgan mavjud tarkibi va vazifalarini qayta ko'rib chiqish va tubdan o'zgartirish dolzarb vazifalardan hisoblanardi.

Respublika hukumati ushbu masalani bosqichma bosqich amalga oshira borib, 1996 yil 21 mayda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida qishloq infrastrukturasi 2000 yilgacha bo'lgan davrda rivojlanterish dasturi haqida"gi qarorini qabul qildi. Mazkur qarorda qishloq joylarda yashovchi aholining malakali tibbiy xizmatga bo'lgan talabini to'la qondirish uchun mutloq yangi tipdag'i davolash- profilaktika muassasalari tarmoqlarini yaratish vazifasi qo'yilib, maqsadli dastur qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida sog'lijni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-2107 sonli Farmoni mavjud sog'lijni saqlash tizimini isloh qilishni yangi bosqichga olib chiqdi.

Tibbiyotda islohotlami yanada chuqurlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 19 sentyabrdagi "Sog'lijni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlanterish Davlat dasturining amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-3923 sonli Farmoni va 2007 yil 2 oktyabrdagi "Respublika tibbiyot muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ -700 sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 18 martdag'i "hududiy sog'lijni saqlash muassasalarining tashkiliy tuzilmasini va faoliyatini takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi 48-sonli qarorlarini qabul qilinganligi ham katta ahamiyatga ega. Mazkur Farmon va qarorlar asosida viloyat davolash- profilaktika muassasalarini ta'mirlash, tubdan ta'mirlash, yangi binolar qurilishi, ularni zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'miniash

borasidagi ishlar jadal sur'atlarda olib borilmoqda.

Mustaqillik yillarda sog'lijni saqlash sohasida qilingan xarajatlar qariyb 4 barobarga o'sdi va bu yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 %ni, mamlakatning Davlat byujetida esa 15,7 % dan ortiqni tashkil qilyapti.

Amalga oshirilgan chora - tadbirlar natijasida 1990 yilda giga nisbatan o'rtacha umr ko'rish 67 yoshdan 73 yoshgacha ortdi, onalar hamda go'daklaming o'limi tegishli ravishda 3,1 va 3,2 marotabagacha qisqardi.

Aholining, ayniqa sil, gepatit, turli yuqumli xastaliklar bilan umumiy kasallanish darajasi sezilarli ravishda pasaydi.

Shu bilan birga, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati, ayniqla, joylarda, tuman va viloyat tibbiyot birlashmalarining moddiy texnik bazasi holati o'sib borayotgan zamonaviy talablarga hamon javob bermay kelmoqda.

Sog'lijni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish, tibbiyot muassasalari faoliyati sainaradorligini oshirish, zamonaviy talablar va standartlarga muvofiq aholiga yuqori sifatlari tibbiy yordam ko'rsatishni ta'miniash Prezidentimizning 2001 yil 28 noyabrdagi "Sog'lijni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1652 sonli qarorida belgilab berilgan. 2012- 2015 yillarda mo'ljallangan dastuming asosiy maqsadi-tibbiy muassasalar faoliyati samaradorligini oshirish, aholiga zamonaviy talablarga va standartlarga mos keladigan yuqori sifatlari tibbiy yordam ko'rsatishini ta'miniash, sog'lijni saqlash tizimida boshqaruv hamda mehnatni tashkil qilishning ilg'or usullarini joriy etishdan iborat.

Aholining tibbiy xizmatlar turi, hajmi va sifatiga talabi ortib borayotgan bir paytda davlat tibbiyot muassasalarining byujetdan moliyalashtirish qat'yan chegaralangan sharoitlarda bunday talablarga javob bera olmasligi ko'zga tashlanmoqda. Bunday vaziyatda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini topish dolzarb masalaga aylandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 28 noyabrdagi "Sog'lijni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1652 sonli qarorida viloyatda 7 ta davolash-profilaktika muassasalari 2012-2015 yillarda umumiy xarajatlarini moliyalashtirishda byujetdan tashqari mablag'lar ulushini bosqichma-bosqich

oshirib borish, 11 tasining esa to'liq o'zini-o'zi

moliyalashtirishga o'tishi ko'zda tutilgan.

1-Jadval

**2012-2014 yillarda tibbiyot muassasalarining bosqichma - bosqich to'liq o'zini - o'zi moliyalashtirishga o'tkazish
Rejasi. Samarqand viloyati**

№	Muassasa nomii	O'z mablag'i hisobidan moliyalashtirish ulushi, %		
		2012	2013	2014
1	Samarqand shahar stomatologiya poliklinikasi	60.0	80.0	100.0
2	Kattaqo'rg'on shahar stomatologiya poliklinikasi	60.0	80.0	100.0
3	Urgut tuman stomatologiya poliklinikasi	60.0	80.0	100.0
4	Tayloq tuman stomatologiya poliklinikasi	60.0	80.0	100.0
5	Samarqand tuman stomatologiya poliklinikasi	60.0	80.0	100.0
6	Jomboy tuman stomatologiya poliklinikasi	60.0	80.0	100.0
7	Poyariq tuman stomatologiya poliklinikasi	60.0	80.0	100.0
8	Ishtixon tuman stomatologiya poliklinikasi	60.0	80.0	100.0
9	Pastdarg'om tuman stomatologiya poliklinikasi	60.0	80.0	100.0
10	Paxtachi tuman stomatologiya poliklinikasi	60.0	80.0	100.0
11	Samarqand tuman 3-son shifoxonasi	60.0	80.0	100.0

2-Jadval

**2012-2015 yillarda tibbiyot muassalarining umumiy xarajatlarini moliyalashtirishda byudjetdan
tashqari mablag'lar ulushini bosqichma - bosqich oshirish rejasi**

№	Muassasa nomi	O'z mablag'i hisobidan moliyalashtirish ulushi, %			
		2012	2013	2014	2015
1	Viloyat salomatlikni tikiash shifoxonasi	50.0	70.0	80.0	80.0
2	Viloyat kardiologiya dispanseri	70.0	80.0	80.0	80.0
3	Viloyat ortopediya va jarohat oqibatlari shifoxonasi	60.0	70.0	80.0	80.0
4	Viloyat oftalmologiya shifoxonasi	50.0	60.0	70.0	80.0
5	Viloyat vrachlik - fizkultura dispanseri	50.0	60.0	70.0	80.0
6	Samarqand shahar 1-son shifoxonasi	30.0	50.0	70.0	80.0
7	Samarqand shahar 2-son shifoxonasi	30.0	50.0	70.0	80.0

2012-2014 yillarda viloyat tibbiyot muassasalarining bosqichma-bosqich to'liq o'zini- o'zi moliyalashtirishga o'tkazish rejasining 2012- 2013 yillardagi bajarilishi tahlil qilinganda quyidagilar aniqlandi. Samarqand shahar, Urgut, Tayloq, Jomboy, Pastdarg'om tuman stomatologiya poliklinikalari 80 % o'miga 62- 78%, atrofida, Kattag'o'rg'on shahri, Paxtachi, Poyariq, Samarqand, Ishtixon tumanlari stomatologiya poliklinikalari esa atigi 20-40% atrofida o'zini - o'zi moliyalashtirishga erishgan.

Shu davrdagi umumiy xarajatlami moliyalashtirishda byudjetdan tashqari mablag'lar ulushini bosqichma-bosqich oshirish ko'zda tutilgan viloyat salomatlikni tikiash shifoxonasida 70 % o'miga 60,7 viloyat kardiologiya dispanseri 80% ni to'liq, viloyat ortopediya va shikastlanishlar asorati shifoxonasi 70 %ni 76,1 %ga, viloyat oftalmologiya shifoxonasi 60% o'miga 63,3% ga viloyat jismoniy tarbiya vrachlik dispanseri 60 % o'miga 55,6 %ga, Samarqand shahar 1-son shifoxonasi 50 % o'miga 35,3% ga baj argan.

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining servis xizmatini rivojlantirish bo'yicha chiqarilgan 2009 yil 14 oktyabrdagi 305- sonli "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

tizimidagi davolash profilaktika muassasalarida aholiga ko'rsatiladigan pullik servis xizmat turlari ro'yxatini tasdiqlash haqida"gi buyrug'iga asosan viloyatdag'i tibbiyot muassasalarida servis xizmatlaming 22 turi joriy etilgan bo'lib, bu xizmatlardan 2013 yilda 2980429,0 ming so'm mablag' tushgan. Bu umumiy byudjetdan tashqari mablag'lardagi hajmining 18,9 %ini tashkil qildi. Shu bilan birga Samarqand viloyatidagi mayjud 550 dan ortiq davolash-profilaktika muassasalaridan atigi 62 tasida yoki 12 %ida qo'shimcha servis xizmat turlari tashkil qilingan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki davolash-profilaktika muassasalarida qo'shimcha servis xizmati tashkil etilgani ularga byudjetdan tashqari mablag'lar tushumini oshiradi. Bu o'z navbatida muassasalar moddiy- texnik bazasini mustahkamlash, tibbiyot xodimlarining moddiy rag'batlantirishini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Viloyat bo'yicha pullik xizmat ko'rsatish hajmi va servis xizmatlari ko'lami yildan-yilga kengayib borayotgan bo'sada, qishloq joylarda servis xizmatlarini rivojlantirish birmuncha sust

kechmoqda.

Viloyatda aholiga pullik servis xizmati ko'rsatish bilan 64 ta davolash-profilaktika muassasalarini shug'ullanadi. Ushbu muassasalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida 2010 yilgacha bo'lgan davrda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 414 -sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2009 yil 14 oktyabrdagi 305 son "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davolash-profilaktika muassasalarida aholiga ko'rsatiladigan pullik servis xizmati turlari ryyxatini tasdiqlash haqida"gi hamda 2009 yil 26 noyabrdagi 352-son "Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida pullik tibbiy va servis xizmat ko'rsatishni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi buyruqlari asosida ish olib bormoqda.

Samarqand viloyatida qo'shimcha pullik xizmat ko'rsatish hajmi yildan -yilga oshib borayotir. 2012 yilda viloyatdagi tibbiyot muassasalarida jami 66177631,1 ming so'm jumladan, byudjetdan tashqari tushgan mablag'lar 7890755,6 ming so'mni yoki 11,9 %ni tashkil qilgan bir paytda 2013 yilda tibbiyot muassasalariga 67844997,0 ming so'm tushgan bo'lib, shundan 9558121,0 ming symi yoki 14,1 %i byudjetdan tashqari tushgan mablag'lar hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda 2012 yilga nisbatan 2013 yilda pullik xizmatlardan tushgan mablag'lar 1667366,0 ming so'mga yoki 121,0 %iga ko'paygan.

2013 yilda viloyat tibbiyot muassasalarini bo'yicha byujetdan tashqari tushgan mablag'lar miqdori umumiy tushumlarning 14,1 %ini tashkil qiladi. Bu borada ijobji ishlami amalga oshirgan viloyat ko'ptarmoqli tibbiyot markazi (65,2 %), viloyat stomatologiya poliklinikasi (47,7 %), viloyat SPID markazi (33,2 %), Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi (33,2 %), Kattaqo'rg'on shahar tibbiyot birlashmasi (17,2 %), viloyat qon quyish stantsiyasi (16,4 %) jamoalarini ko'rsatish mumkin. Viloyatdagi 46 ta tibbiyot muassasalaridan atigi 6 tasi yoki 13 %i viloyat byyicha o'rtacha tushumlardan baland, 16 tasi yoki 28,7 %i juda past ko'rsatgichga erishgan.

Tibbiyot muassasalarida 2013 yilda byudjetdan tashqari mablag'lar tushumining 70,0 %i pullik tibbiy xizmat ko'rsatish (27,7 %i statsionar, 42,5 %i ambulator-poliklinika), 7,9 %i pullik ovqatdan 0,2 %i ijaranan, 1,8 %i servis xizmatlardan, 20,0 %i boshqa tushumlardan iborat. Tahlildan ko'riniib turibtiki asosiy tushumlar

bemorlarga ambulatoriya-poliklinika va statsionarlarda ko'rsatilgan tibbiy yordam hisobidan tushgan. Shuni nazarga olib pullik xizmatning boshqa turlarini ham rivojlantirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 17 apreldagi PQ-I957 sonli "2013-2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlami yanada jonlantirishga asosiy omil bo'ldi. Qaromi bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2013 yil 30 apreldagi 136-sonli, viloyat hokimligi sog'liqni saqlash boshqarmasining 437-u sonli buyruqlari chiqarildi. Samarqand viloyatida 2013-2016 yillarda xizmat va servis sohasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasidagi ishlab chiqildi.

Xulosalar

1. O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va uni rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asoslar yaratilgan.

2. Viloyat tibbiyot muassasalarida pullik xizmat ko'rsatish va servis xizmati ko'lami yildan-yilga kengayib borayotgan bir paytda, qishloq joylarda servis xizmatlarni rivojlantirish bir muncha sust kechmoqda.

3. Viloyat tibbiyot muassasalarini xarajatlar smetasida byujetdan tashqari mablag'lar tushumi miqdori 2012 yildagi 7890755,6 ming yoki 11,9 %dan, 2013 yilga kelib, 9558121,0 ming yoki 14,1 %gaoshgan.

4. Viloyat tibbiyot muassasalarida pullik tibbiy va servis xizmatlari tushgan mablag'laming 70,1 %ini pullik tibbiy xizmat, shu jumladan 27,7 %ini statsionar, 42,5 %ini ambulator-poliklinika xizmati tashkil qiladi.

Adabiyotlar

1. Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida pullik xizmatni tartibga solishga doir normativ - me'yoriy hujjalalar to'plami. Toshkent. 2011.-235 b.
2. Xodjaev N.I. Tibbiyot muassasalarida pullik xizmatni tashkil etish. Samarqand. DChTI. 2013. -122 b.
3. Xodjaev N.I. Samarqand viloyat tibbiyot muassasalarida aholiga pullik tibbiy xizmatlari tashkil etishning ayrim jihatlari. Samarqand DTI. 2014. -21b.
4. Iskandarova Sh.T, Abduraimov Z.A. Davolash - profilaktika muassasalarida pullik tibbiy xizmatlari tashkil etishning amaliy jihatlari. Sog'liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish jumali. 2012. -11 son. 10-15 b.
5. Viloyat hokimligi sog'liqni saqlash boshqarmasining xususiyashtirish va pullik xizmatni tashkil etish bo'limi materiallari.
6. Viloyat, shahar, tuman tibbiyot muassasalarini materiallari.